

**YUNON –BAQTRIYA PODSHOLIGI TANGALARI
TO'G'RISIDA BA'ZI MUSHOHADALAR**

4- sho'ba: Markaziy Osiyo antik davri moddiy madaniyatlari.

Mamatqobilova Saboxat Shokir qizi

Termiz davlat universiteti 1- bosqich tayanch doktaranti.

Tel:(+99899)732-13-96;

E-mail: sabohatmamatqobilova@gmail.com

ANNOTASIYA

Tariximizni o`rganishda tangashunoslik fanining o`rni beqiyosdir. Tangalar bizga eramizdan avvalgi davrdan to hozirgi kungacha bo`lib o`tgan tarixiy va madaniy voqealar qolaversa, siyosiy, iqtisodiy, millatlarning diniy dunyoqarashlari, hukmdorlar titullari haqida ham qimmatli malumotlarni beradi. Numizmatik manbalarda davlatning nomi, hukmdorning ismi, qabul qilgan tituli, hukmdor tasviri, uning taxtga o`tirgan vakti va hukmronlik qilgan yillari hakida ham guvoxlik beradi. Maqolada Yunon-Baqtriya podsholigi tangalari va ularning klassifikasiysi, tangalar turlari va muomalasi Yunon-Baqtriya podsholigiga oid muhim numizmatik topilmalar to`g`risidagi ma'lumotlar aks etgan.

Kalit so`zlar: Yunon-Baqtriya podsholigi tangalar turlari, Ellin va Sharq madaniyati, Iskandartepa yodgorligi, Evtidem, Demetriy, tangalarda aks etgan podsholik titullari.

АННОТАЦИЯ

Роль нумизматики в изучении нашей истории бесподобна. Монеты предоставляют нам ценную информацию о политических, экономических, религиозных мировоззрениях народов, титулах правителей, а также об исторических и культурных событиях, происходивших от нашей эры до наших дней. Нумизматические источники свидетельствуют также о названии государства, имени правителя, полученном им титуле, изображении правителя, времени его восшествия на престол и годах его правления. В статье содержатся сведения о монетах Греко-Бактрийского царства и их классификации, видах и обращении монет, а также важные нумизматические находки, связанные с Греко-Бактрийским царством.

Ключевые слова: Виды монет Греко-Бактрийского царства, эллинской и восточной культуры, памятник Искандартепе, Евтидему, Деметрию, отраженные на монетах царские титулы.

ANNOTATION

The role of numismatics in studying our history is incomparable. Coins provide us with valuable information about the political, economic, religious worldviews of

nations, titles of rulers, in addition to the historical and cultural events that took place from BC to the present day. Numismatic sources also testify about the name of the state, the name of the ruler, the title he received, the image of the ruler, the time of his accession to the throne and the years of his reign. The article contains information about the coins of the Greco-Bactrian Kingdom and their classification, types and circulation of coins, and important numismatic findings related to the Greco-Bactrian Kingdom.

Key words: Types of coins of the Greco-Bactrian kingdom, Hellenic and Eastern culture, monument of Iskandartepa, Euthydemus, Demetrius, royal titles reflected on coins.

Eng qadimgi davlatlar joylashgan O`zbekiston hududida ellinizm sivilizasiyası, hind-evropaliklarning kelib chiqishi, dunyo dinlarining o`zaro ta'siri va sharqning eng qadimiy davlatlari, ularning faoliyati kabi murakkab masalalarga oydinlik kirituvchi noyob ma'lumotlar mavjud.

XIX-XX asrlarda ellistik Baqtriya tarixi Aleksandr Makedonskiy va uning vorislarining sharqqa yurishi bilan bog`liq holda o`rganildi. Shundan kelib chiqib, numizmatik va yozma manbalar asosida Yunon-Baqtriya podsholigining tarixiga oid bir qancha qarashlar vujudga keldi. Bu manbalar asosida biz Ahamoniylar istibdodi va Aleksandr bosqini davrida Baqtriya o`lkasidagi holat haqida bilimga ega bo`lishimiz mumkin. Ellinizm tarixida Yunon-Baqtriya podsholigi yangi sahifa ochdi. [Попов А.А, М: 2008. Б 3.]

Ushbu davlat o`zida Ellin va Sharq madaniyati uyg`unligini boshlab bergen davlat hisoblanadi. Shunday ekan bu davlatda ikki madaniyat almashinuvini ham ko`rish mumkin. Yunon-Baqtriya podsholigi siyosiy tarixi to`g`risida ko`plab tarixiy manbalar mavjud. XX asrning ikkinchi yarmida Baqtriya san`atida juda ko`plab yunon afsonalaridagi xudolari, shuningdek, bahodirlari tasvirlangan yunon uslubida zarb qilingan tangalar topildi. Markaziy Osiyodan topilgan bir qancha zargarlik buyumlari ham ellinizm davri madaniyatiga tegishli deb taxmin qilindi. Yunon-Baqtriya tangalari texnikaviy ijrosi jihatidan va hususan, podshohlarning siyosini aks ettirishdagi badiiy ifoda usullari , eng baland saviyada zarb etilganligi jihatidan antik davr tanga zarb etish ishining eng nodir namunasi hisoblanadi. Yunon-Baqtriya tangalarining o`lchov birliklari haqida gapirsak, Masalan, Yunon-Baqtriya Evtidem tangasi eramizdan avvalgi 235-200 yillar. misdan tayyorlangan diametri - 19 mm, vazni - 3,5 gramm. Evkratid oboli - eramizdan avvalgi 171-155 yillar Kumush obol - d - 0,9 mm, V - 0,9 g. Tangalarga aks ettirilgan Yunon-Baqtriya tangalariga podsholarning tasviri bu umumiylar tarzda qabul etilgan yagona ideal hukmdorning tasviri bo`lmay balki podshoning o`z chinakam suratidir. Podsholar bir-biridan faqat yuz ko`rinishi bilangina emas, balki musavvirlar ularning har birining ahvoli ruhiyati berishda

ajinlardan, ko`z boqishlaridan, lab ifodalaridan unumli foydalaaganlar. O`rta Osiyo tangashunosligi tarixi bo`yicha aytadigan bo`lsak, hukmdor tasvirining tangalarda ifodalaniши Aleksandr Makedonskiy davriga borib taqaladi. U zarb ettirgan tangalarda ilk bor podshoh va ma`budlar tasviri hamda titulini zerb ettiradi. [Ртвеладзе Э.Б.

T: 1987.B.10.]

Baqtriyada zerb etilgan birinchi tangalarning paydo bo`lishi Selevkning o`g`li Antiox II (Spitamennenning qizi Apamaning o`g`li) nomi bilan bog`liqdir. Bu tangalarning nomlari ham turlicha edi. Jumladan, oltindan yasalgan tangalar stater, kumush tangalar tetradraxma, draxma va yarim draxma deb atalgan. [Ртвеладзе Э.Б. Т: 1987.B-12] Antiox II (mil. avv. 280-262 yillar) tangalarining o`ng tomonida toj kiygan shox tasviri zerb etilgan. Tersida esa libossiz Zevs tasviri tushirilgan. O`ng qo`lida bir dasta chaqmok. Chap qo`lida esa qalqon ushlagan Zevs hamda yunon tilida “Vasilevs Antioxoy” ya’ni “Shox Antiox” degan titul yozilgan. [Беляева Т. М: 1978. B.24.]

Yunon-Baqtriya tangalari, asosan, bir andozada bo`lib, o`ng tomonida hukmdor tasviri va uning martabasini, ismini hamda titulini grek yozuvi bilan doira yoki ustun shaklida yozilganligini ko`rishimiz mumkin. Tersida esa hukmdor o`ziga pir qilib olgan mabudlarning, masalan, Zevs, Gerakl, Poseydon, Apollon, Dioskurlarning tasviri tushirilgan edi. Ularda podshohning martabasi, ismi hamda laqabini qaratqich kelishigida masalan, "podalo Antimax xudoning" degan grekcha titul yarim doira yoki ustuncha shaklida joylashtirilgan. Bundan tashqari tanganing tersida ma`budning tasviri yonida bir necha grek xarflaridan iborat monogramma ham bor. Evkratid (171-155 mil. avv. yillar) tangasinig o`ng tomonida makedoncha dubulg`a kiygan shohning ko`kragigacha tushirilgan tasviri. Tersida esa ot choptirib kelayotgan egizak aka-uka Dioskurlar tasviri ifodalangan va tangada “Xaloskor shoh Evkratidniki” (Сотер василевс Евкратидой) degan yunoncha yozuv orqali o`z titulini ifodalagan. Uning tituli Xaloskor (Soter) bo`lganlini u zerb ettirgan tangalardan ma`lum. Evkratid taxt uchun bo`lgan kurashda Demetriy ustidan g`alaba qozonadi. Hokimiyatni qo`lga kiritgach, u “Soter” (qutqaruvchi) titulini oladi. Bu unvon Baqtriyani Demetriydan qutqardi degan ma`noda qo`llangan ehtimol. [Попов А.А. М: 2001. B.30.]. Yunon-Baqtriya tangalarida andozaga tushib qolgan tasvirlardan chekinish hollari ham uchrab turadi. Podsho Evkratid davrida zerb etilgan tangalarning o`ng tomonida podshohning o`z surati hamda “Ulug` shoh Evkratid” degan titul yozilgan, tersida esa yigit yoki erkak hamda peshonasiga tillaqosh taqgan ayolning yon tomondan zerb etilgan surati aks ettirilgan. Shohlarning portretlari o`rtasidagi o`xshashlik qanchalik ko`p bo`lmisin, har bir shohning obrazni individual va takrorlanmasdir.

Chexiya Respublikasi Karlova universiteti Klassik arxeologiya institute tomonidan tashkil etilgan O`zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi 2002-yildan O`rta Osiyo, shu jumladan, Baqtriya tarixi va arxeologiya bo`yicha tadqiqodlar olib bormoqda. Jumladan, O`zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik

ekpeditsiyasi tomonidan 2020-2021-yillarda Iskandartepa, Mirzaliqko'rg'on va Darband devoir kabi yodgorliklarda qazishmalar olib borildi.[Xamidov.O. Nazarova.D. 2023.B.1] Qazishma jarayonida ellinizm davriga oid ko'plab buyumlar, taqinchoqlar, madaniy bezak namunalari shuningdek numizmatik materiallar topilgan. Numizmatik materiallar orasida Yunon-Baqtriya hukmdori Demetriy tangalari ahamiyatlidir.Yunon- Baqtriya hukmdori Demetriy o`z hukmronligi davrida mingdan ortiq shaharga asos solgan, shohlik territoriyasini ancha kengaytirishga muyasaar bo`lgan. Jumladan, u Hindistonning ko`pgina kismini bosib olgai. Demetriy o`z tangalarida filning boshiga o`xshash bosh kiyim kiygan holda tasvirlangan. Bu bilan u o`z g`alabalarini keng omma orasida tashviqot qilmoqchi bo`lgan. Ma'lumki, Hindiston o`sha vaqtarda ham fillar vatani deb atalardi. Demetriyning iyaklari og`ir, lablari qattiq qisilgan, kichik ko`zлari ichichiga botgan. Uning burni katta, bo`yni yo`g`on.Umuman Demetriyning yuzida qandaydir muayyan qat'iylik, mag'rurlik va o`z maqsadiga erishish yo`lidagi sabotlilik o`z ifodasnni topgan. Bu binlan rassom kandakorlar Yevtidem (Yunon- Baqtriya hukmdori, Demetriyning otasi) va Demetriy o`rtasidagi nasliy o`xshashliklarni qayd qilmoqchi bo`lgan bo`lsalar kerak. Ammo bu o`xshashlikni bilib olish va ifoda etish har qanday kandakorning ham qo`lidan kelavermagan. Buning uchun katta mahorat kerak. Numizmatik materiallar davr haqida yanada chuqurroq o`ylash imkoniyatini beradi, shuningdek ko`plab munozaralarga sabab bo`ladi. Demetriy tangalari bizga qiziqarli yozuvlar va suratlarni taqdim etadi. Birinchi navbatda Demetriy tituli diqqatga sazovordir,"yengilmas", ikkinchidan, ikkinchidan ushbu hukmdorning hind va yunon tilida zarb ettirilgan ikki tilli tangalar qiziqarli, uchinchidan, fil timsolli dubulg`a kiygan holatdagi Demetriy portreti diqqatga sazovordir.

Arxeologik yodgorliklarda olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida O`zbekiston hududining qadimgi sivilizasiya o`choqlaridan biri ekanligi yana bir bor tasdiqlandi. Shu tadqiqotlar asosida juda qadimdan ikki madaniyat aholisi Yunon-Baqtriya podsholigi tangalari tarixi ham nazardan chetda qolmadi.

Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi

Nº	Hukmdor nomi	Qisqacha ta'rif	Og'irligi	Diametri	Holati
1	Demetriy	<p>Yunon-Baqtriya tangasi</p> <p>Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o'ng tomonda, dubulg'a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko'rinishida, tanasi yuqoriga egilgan. Sochlар diadem bilan bog'langan, uning uchlari boshning orqasida ko'rинади.</p> <p>Revers: Yalang'och Gerakl, o'ng qo'li boshidagi diademanı, yarim tushirilgan chap tomonida - tayoq va sher terisi. Vertikal holatda o'ngda ΒΑΣΙΛΕΩΣ, chapda Δημήτριος Hukmdor Demetriy afsonasi aks etgan.</p>	0,60 g	10	Arxeologik to'liq, yaxshi
2	Demetriy	<p>Yunon-Baqtriya tangasi</p> <p>Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o'ng tomonda, dubulg'a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko'rinishida, tanasi yuqoriga egilgan. Sochlар diadem bilan bog'langan, uning uchlari boshning orqasida ko'rинади.</p> <p>Revers: Yalang'och Gerakl, o'ng qo'li boshidagi diademanı, yarim tushirilgan chap tomonida - tayoq va sher terisi. Vertikal holatda o'ngda ΒΑΣΙΛΕΩΣ, chapda Δημήτριος Hukmdor Demetriy afsonasi aks etgan.</p>	0,65 g	11	Arxeologik to'liq, yaxshi
3	Demetriy	<p>Yunon-Baqtriya tangasi</p> <p>Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o'ng tomonda, dubulg'a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko'rinishida, tanasi yuqoriga egilgan. Sochlар diadem bilan bog'langan, uning uchlari boshning orqasida ko'rинади.</p> <p>Revers: Yalang'och Gerakl, o'ng qo'li boshidagi diademanı, yarim tushirilgan chap tomonida - tayoq va sher terisi. Vertikal holatda o'ngda ΒΑΣΙΛΕΩΣ, chapda Δημήτριος Hukmdor Demetriy afsonasi aks etgan.</p>	0,65 g	11	Arxeologik to'liq, yaxshi
4	Demetriy	<p>Yunon-Baqtriya tangasi</p> <p>Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o'ng tomonda, dubulg'a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko'rinishida, tanasi yuqoriga egilgan.</p>	0,59 g	10	Arxeologik to'liq, yaxshi



		Sochlar diadem bilan bog'langan, uning uchlari boshning orqasida ko'rindi. Revers: Yalang'och Gerakl, o'ng qo'li boshidagi diademan, yarim tushirilgan chap tomonida - tayoq va sher terisi. Vertikal holatda o'ngda ΒΑΣΙΛΕΩΣ, chapda Δημήτριος Hukmdor Demetriy afsonasi aks etgan.			
5	Demetriy	Yunon-Baqtriya tangasi Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o'ng tomonda, dubulg'a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko'rinishida, tanasi yuqoriga egilgan. Sochlar diadem bilan bog'langan, uning uchlari boshning orqasida ko'rindi. Revers: Yalang'och Gerakl, o'ng qo'li boshidagi diademan, yarim tushirilgan chap tomonida - tayoq va sher terisi.	0,82 g	12	Arxeologik to'liq, yaxshi
6	Demetriy	Yunon-Baqtriya tangasi Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o'ng tomonda, dubulg'a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko'rinishida, tanasi yuqoriga egilgan. Sochlar diadem bilan bog'langan, uning uchlari boshning orqasida ko'rindi. Revers: Yalang'och Gerakl, o'ng qo'li boshidagi diademan, yarim tushirilgan chap tomonida - tayoq va sher terisi.	0,58 g	10	Arxeologik to'liq, yaxshi
7	Demetriy	Yunon-Baqtriya tangasi Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o'ng tomonda, dubulg'a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko'rinishida, tanasi yuqoriga egilgan. Sochlar diadem bilan bog'langan, uning uchlari boshning orqasida ko'rindi. Revers: Yalang'och Gerakl, o'ng qo'li boshidagi diademan, yarim tushirilgan chap tomonida - tayoq va sher terisi.	0,67g	11	Arxeologik to'liq, yaxshi
8	Demetriy	Yunon-Baqtriya tangasi Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o'ng tomonda, dubulg'a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko'rinishida, tanasi yuqoriga egilgan. Sochlar diadem bilan bog'langan, uning uchlari boshning orqasida ko'rindi. Revers: Yalang'och Gerakl, o'ng qo'li boshidagi diademan, yarim tushirilgan chap tomonida - tayoq va sher terisi.	0,70g	12	Arxeologik to'liq, yaxshi
9	Demetriy	Yunon-Baqtriya tangasi	0,68g	11	Arxeologik

		Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o'ng tomonda, dubulg'a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko'rinishida, tanasi yuqoriga egilgan. Sochlardan diadem bilan bog'langan, uning uchlari boshning orqasida ko'rinishi. Revers: Yalang'och Gerakl, o'ng qo'li boshidagi diademan, yarim tushirilgan chap tomonida - tayoq va sher terisi.			to'liq, yaxshi
10	Demetriy	Yunon-Baqtriya tangasi Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o'ng tomonda, dubulg'a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko'rinishida, tanasi yuqoriga egilgan. Sochlardan diadem bilan bog'langan, uning uchlari boshning orqasida ko'rinishi. Revers: Yalang'och Gerakl, o'ng qo'li boshidagi diademan, yarim tushirilgan chap tomonida - tayoq va sher terisi.	0,70 gr	12	Arxeologik to'liq, yaxshi

Foydalanaligan adabiyotlar ro'yxati:

- Попов А.А. Греко-Бактрийское царство. Москва, 2008.
- Ртвеладзе Э.В. Древные монеты Средней Азии. Из литературы . Г. Гусъяма. Тошкент. 1987.
- Беляева Т. Из казнь чаря Деметрия-Паз. Коммунист Таджикистана 1978-г
- Попов А.А. Эволюция царской власти в Греко-Бактрии Античное общество - IV: Власть и общество в античности. Материалы международной конференции антиковедов, проводившейся 5-7 марта 2001 г. 2001
- Ртвеладзе Э.В. Титулы правителей государств и владений Средней Азии в начале I тыс. до н.э // ОНУ. –2006. -.№ 5-6. – С. 46-57;
- Н.Д.Двуреченская, А.Н.Горин, К.А.Шейко Монеты из крепости Узундара (по результатам работ 2015 г.)
- Mairs. R.A "Bactrian or Graeco-Bactrian Kingdom" in The Encyclopedia of Empire, First Edition. Edited by John M. MacKenzie. Wiley Blackwell Encyclopedia of Empire, London: Wiley-Blackwell. 2016. DOI: 10.1002/9781118455074.wbeoe089.
- Xamidov.O. Nazarova.D. Chexiya Respublikasi Karlova universiteti arxeologiya institutida O'rta Osiyo tarixi va arxeologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqodlar.(2020-2021-yillar) Muzeyshunoslik XXI asrda: tadqiqotlar, an'analar va innovatsiyalar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami. 3-kitob. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi. Toshkent, 2023.